



## DISKURSDA LISONIY VA NOLISONIY OMILLAR HAMKORLIGI

Nilufar Yuldasheva,  
*Qarshi DU O'zbek tilshunosligi  
kafedrasi dotsenti, f.f.d (DSc)*

*Annotatsiya:* Tejamlilik ham nutqiy vaziyat tufali yuzaga keladi. Ona tilimiz birliklari (so'z shakli, so'z birikmasi, gap) ni tadqiq qilishda adabiy til meyorlarini belgilashda mustaqillikka qadar ruscha qolip va andozalar asos qilib olingan edi.

*Kalit so'zlar:* Pragmalingvistika, kognitiv tilshunoslik, Kommunikantlar, intensiya, adreslilik, integrativlik, situativlik, protsessuallik.

Pragmalingvistika va kognitiv tilshunoslikda diskurs tushunchasi asosiy ahamiyat kasb etadi. Ko'pgina zamonaviy tilshunoslardan diskurs tushunchasini bevosita matn bilan bog'laydilar<sup>1</sup>. Deyk T.A.Van "Diskurs – kommunikativ harakatning yozma yoki og'zaki verbal nutq mahsuli"<sup>2</sup>, sifatida ta'riflaydi. Bunda tilshunos, asosan, diskurs atamasining muloqotda yozma va og'zaki hosil bo'lishini ta'kidlab o'tgan. Biz bilamizki, diskurs bu yozma yoki og'zaki shakldagi matndir. N.Normurodova o'z doktorlik dissertatsiyasida antropotsentrizm, intensiya, adreslilik, integrativlik, situativlik, protsessuallik, ochiqlik, dinamiklik kabilarga ta'riflar berib o'tgan. Mazkur keltirilgan belgilar asosida diskursda matnning turli ekstralolingvistik (nolisoniy) omillari bilan shakllanishi aytib o'tiladi va nolisoniy omillar sifatida quyidagilar sanab o'tiladi: 1) Kommunikantlar; 2) Nutqiy vaziyat; 3) Muloqot ishtirokchilarining maqsadlari.

Diskurs jarayonida kommunikantlarning o'zaro aloqasi tufayli turli holatlar yuzaga keladi. Ana shunday jarayonlardan biri tejamlilik bo'lib, ko'pincha dialogik diskursda namoyon bo'ladi.

Tejamlilik ham nutqiy vaziyat tufali yuzaga keladi. Ona tilimiz birliklari (so'z shakli, so'z birikmasi, gap) ni tadqiq qilishda adabiy til meyorlarini belgilashda mustaqillikka qadar ruscha qolip va andozalar asos qilib olingan edi. Natijada yaratilgan nazariya ko'p jihatdan milliylikdan xoli bo'lib qoldi. Jumladan, o'zbek adabiy tilida eng kichik gap ikkita ega va kesimdan iborat bo'ladi degan fikr va kesimni markaziy bo'lak sifatida tan olmaslik ruscha qolip va andozalarga ko'r-ko'rona ergashish edi. Holbuki, gap, jumla tuzilishi milliy ruhga, V. Humbold ta'biri bilan aytganda, xalqning ruhiy quvvatiga bevosita bog'liq edi. «Jumladan, bitta mustaqil so'z (fe'l yoki ot) kesim vazifasida kelishi va gapni hosil qilishi mumkin,

<sup>1</sup>Teun van Dijk. Ideology: A Multidisciplinary Approach / Dijk van Teun. – London: Sage, 1998. – P. 86. 21  
Арутюнова Н.Д. Дискурс // Лингвистический энциклопедический словарь / Гл. ред.: В.Н.Ярцева. – Москва, 1990. – С. 136-137. 22

<sup>2</sup>Дейк Т.А.Ван. Язык. Познание. Коммуникация. – М., 1989. – С. 46.



ya'ni bunday turdag'i gap bir tarkibli ixcham sodda gap lisoniy sintaktik qolipining nutqiy reallashuvi bo'ladi»<sup>3</sup>.

Masalan: *Arslonbekmisan?* Bu gapda ega qo'shimcha (-san) bilan ifodalangan. Uni aniq ko'rsatish (konkretlashtirish) zarurati yo'qligidan ega vazifasida qo'llanadigan so'z (*sen*) tejalgan. Yuqoridagi gap ot kesimdan iborat bo'lsa, quyidagi bir so'zli gap fe'l kesimdan iborat ikki tarkibli egali sodda gap LSQning verballashuvi: *Qurdik*. Bu gapda to'ldiruvchi va ega tejalgan. To'ldiruvchi (*pechka*) oldingi gapda ifodalangan (*Pechka quraman dedi, mayli dedim*) egani ifodalash uchun 3-shaxsni ifodalovchi qo'shimcha (-k) qo'llangan.

Bir so'zli gapda ega qo'shimcha bilan ifodalanib ish-harakatning bajarilish o'rni ko'rsatilmasligi mumkin. Bunday holda egani ta'kidlash nazarda tutilmaydi, hol esa oldingi gapda so'z bilan ifodalanadi. Yozuvchining mahorati bundan tashqari fikrni so'zlovchining shaxsiy munosabati bilan yo'g'dirish imkonini beradi:

– *Kiraman! – Kirmaysan! – Kiraman!*.

Ko'rinish turibdiki, so'zlovchining munosabati salbiy, darajasi yuqori. Shu bois g'ayrilisoniy amal (ohang, undov belgisi) bilan bir qatorda lisoniy vositadan ham foydalanilgan. Hurmat qo'shimchasi -siz o'rniga -san qo'shimchasi ishlatilgan. Ba'zan matnlarda ish-harakat egasining holatini ko'rsatishda ham bir so'zli gapdan foydalanadi:

– *Jinnimisan?*

– *Karaxtman...*

Gap hajman kengayib ikki so'zdan iborat bo'lganda hamda egani ta'kidlash taqozo qilinmasa, olmosh tejaladi. Ayni paytda nutqiy vaziyat ish-harakat obyektini ta'kidlashni talab qilishi mumkin. Gap tarkibiga birinchi so'zning kiritilishi shu bilan izohlanadi:

*Chiroqni o'chiraymi?*

*Dasturxon tuzatganmisan?*

Agar ish-harakatning bajarilish o'rni ta'kidlansa, nutqiy vaziyat talabi bilan gapga hol vazifasidagi so'z qo'shiladi:

*Maktabga bormaymizmi?*

*Uyga ketyapman.*

Bajarilayotgan ish-harakatning amalga oshish tarzi ta'kidlanayotgan vaqtida nutqiy vaziyat uchun gapga yana bir so'z qo'shib, fikr tarkibidagi tushuncha soni orttiriladi:

*Uyga hovliqib ketyapman.*

<sup>3</sup> Фуломов А., Аскарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. –Тошкент: «Ўқитувчи» 1987. ., .



Maqsad o‘quvchining diqqatini yangi tushunchaga qaratish bo‘lganidan so‘z (olmosh) bilan ifodalanadigan egani tejash barobarida holning ifodalanishida ham yordamchi so‘z tejalgan (*hovliqqañ holda* deyilmagan).

Demak, biror tushunchani ifodalash uchun qo‘srimcha yetarli bo‘lsa, so‘zni tejash maqsadga muvofiq. Nutqiy vaziyat so‘zlovchi, tinglovchi yoki o‘zga shaxsdan birini ta’kidlashni taqozo etsa, olmosh yoki ot qo‘llanib, eng kichik gap ikkita mustaqil so‘zdan iborat bo‘ladi, ya’ni bu ikki tarkibli yig‘iq sodda gap LSQning nutqdagi verballahuvi bo‘ladi. [E+ IIWPmY] gaplarning [W] qismi turli xil so‘z turkumlari bilan ifodalangan bo‘ladi va bunday gaplarning kesimi sodda (*Men o‘qituvchiman; Karim keldi*), tarkibli (*Turdi izoh berdi*), birikmali (*Akam – O‘zbekiston Qahramoni*), frazema kesimli (*Xotin bosh chayqadi; Abror qotib qoldi*) ko‘rinishlarda yuzaga chiqadi.

*Sen yig‘lading .*

*Men tushunmadim.*

Maqsad so‘zlovchini ta’kidlash bo‘lganidan ikkala gapda ham olmosh qo‘llangan. Ikkala gap ham alohida abzats qilib berilgan. Bu ta’kidni kuchaytirishga xizmat qiladi. Demak, ega (so‘zlovchi)ni ta’kidlash uchun yozuvchi lisoniy vosita va nolisoniy omil (abzats)dan foydalangadi.

Qo‘srimcha bilan ifodalangan tinglovchini ta’kidlash nazarda tutilsa II shaxs kishilik olmoshlari (sen, senlar, siz, sizlar) dan biri qo‘llanadi:-

*Buning ostiga siz chizdingizmi?.*

Olmosh mantiqiy urg‘u olgani uchun o‘rni o‘zgarib kesim turadi. Ta’kid darajasi yuqori bo‘lib gap mazmunida olmoshning salmog‘i ortadi.

Demak, ta’kidning yuqori darajasi ega vazifasidagi so‘z va uning gapdagi o‘rni vositasida ifodalangan.

Qo‘srimcha orqali ifodalangan egani ta’kidlashda olmosh bilan birga ohang ham ishtirok etadi:

*-Sen bolaginamning birini ikkita qiladigan xotin emassan!*

*Sen nodonsan! Sen iflossan!*

Tinglovchini ta’kidlash uchun hurmat anglatuvchi olmosh (*siz*) emas, hurmatga betaraf olmosh (*sen*) ishlatilgan. So‘zlovchi bilan tinglovchining ijtimoiy roli imkon berib, nutq vaziyati osoyishta bo‘lganda mazkur olmosh o‘z ma’nosida kelib, so‘zlovchi bilan tinglovchi o‘rtasidagi yaqinlikni bildiradi. Nutqiy maqsad, vazifaga qarab suhbatdoshlardan bittasi ta’kidlanib olmosh bilan ifodalanishi mumkin:

*Siz shunday deb tursangiz dodimizni kimga aytamiz??* («Sinchalak»).

Ko‘rinib turibdiki, gapning ikkinchi qismida olmosh (*biz*) tejalgan.



Ba'zan nutqiy vaziyat gapning strukturasini ham belgilab beradi. Bunda gapning grammatik holati intonatsiya, pauza va nutqiy vaziyatga bog'liq bo'ladi. Jumladan, bunday holatni A.G'ulomov *Aytgani aytgan* tipidagi sintaktik birlik misolida tushuntirib beradi. "*Aytgani aytgan* tipidagi konstruksiya ba'zan bir kesim sanalib, o'rni bilan *ega + kesim* ham bo'la oladi. Bu hodisa grammatik holatdan, intonatsiyadan, pauzadan, mazmundan bilinadi:

1) o'sha fe'l bilan ifodalangan ishni bajarishda ortiqlik, takror ma'nosi anglatilganda, bu kompleks butunligicha kesim sanaladi. Bunday vaqtda ikkisi bir bosh urg'u bilan aytildi, orada pauza bo'lmaydi.

2) "*Aytgan so'zi qat'iy, rad etib bo'lmaydi*" degan mazmun ifodalanganda, *aytgani* — ega, *aytgani* — kesim sanaladi (orada qisqa pauza bor). Birinchi holda bu kompleks bosh kelishikdagi (ega vazifasidagi) so'z bilan bog'lanadn; ikkinchi holda esa ega qaratqich kelishigidagi so'z bilan bog'lanadi. Masalan: *U aytgani-aytgan* ("доим айтади"), *Uning aytgani — aytgan* ("aytgani qat'iy")<sup>4</sup>.

Ko'rindiki, *Aytgani aytgan yoki Degani degan* shaklidagi sintaktik birliklarning ikkisi ham bir bosh urg'u bilan aytilsa va birliklar orasida to'xtam bo'lmasa, bunday turdag'i gap bir tarkibli ixcham sodda gap bo'lib, lisoniy sintaktik qolipning nutqiy hosilasi sanaladi. *Aytgani* — ega, *aytgani* — kesim ko'rinishli va pauza bo'lsa, ikki tarkibli egali yig'iq konstruksianing hosilasidir. Anglashiladiki, diskurs – nutqda tilning shakli va vazifasini uning kichik grammatik qismlari, ya'ni fonema va morfemalardan tashqari ko'rib chiqadi hamda tilning katta birliklari, jumladan, leksemalar, sintaksiis va kontekst suhbatlarga qanday ma'no qo'shishini o'rganadi. Shuningdek, diskurs gapning strukturasiga ham ta'sir etib, lisoniy va nolisoniy omillarning mushtarakligida voqelanadi.

<sup>4</sup> Фуломов А., Аскарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. –Тошкент: «Ўқитувчи» 1987.